



UDK: 327.5

Hazratqul AZIMOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc, S.Saidov taqrizi asosida.

THE IMPORTANCE OF TRANSPORT CORRIDORS IN REGIONAL GEOPOLITICAL PROCESSES

Annotation

This scientific article analyzes the theoretical foundations and scientific approaches to the study of international transport corridors, their importance for Central Asia. In particular, initiatives of international and regional organizations (SCO, UN, World Bank, etc.) aimed at developing regional transport corridors, strategic and geopolitical interests of the main participants in the formation and development of transport routes are revealed.

Key words: Transport routes, geopolitics, strategy, Central Asia, international organizations, theoretical approaches.

MINTAQAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLARDA TRASPORT KORIDORLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada xalqaro transport yo'laklarini o'rganishning nazariy asoslari va ilmiy yondashuvlarini, ularning Markaziy Osiyo uchun ahamiyatini tahlil etilgan. Jumladan, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning (SHHT, BMT, Jahon banki va boshqalar) mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari, transport yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy ishtirokchilarning strategik va geosiyosiy manfaatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Transport yo'nalishlari, geosiyosat, strategiya, Markaziy Osiyo, xalqaro tashkilotlar, nazariy yondashuvlar.

ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ В РЕГИОНАЛЬНЫХ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Аннотация

В данной научной статье анализируются теоретические основы и научные подходы изучения международных транспортных коридоров, их значение для Центральной Азии. В частности, раскрываются инициативы международных и региональных организаций (ШОС, ООН, Всемирный банк и др.), направленные на развитие региональных транспортных коридоров, стратегические и геополитические интересы основных участников формирования и развития транспортных маршрутов.

Ключевые слова: Транспортные пути, геополитика, стратегия, Центральная Азия, международные организации, теоретические подходы.

Kirish. Globallashuv va milliy iqtisodiyotlar o'zaro bog'liqligining jadal o'sishi sharoitida xalqaro transport koridorlarining ahamiyati ortib bormoqda, chunki bular davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga, tovar aylanmasini oshirishga va investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, jahon hamjamiyati so'nggi yillarda xalqaro munosabatlar tuzilishini murakkab qayta qurilishi va global hamkorlikning ko'p bosqichli tizimiga o'tishda ifodalangan chuqur o'zgarishlar bosqichiga kirib qoldi. Buning natijasida ko'p bosqichli hamkorlik, kengaytirilgan muloqot va global o'zgarishlar sharoitida o'zaro munosabatlarning barqaror shakllarini izlashga asoslangan xalqaro munosabatlarning yangi arxitekturasini shakllanmoqda. O'z navbatida, davlatlar va birlashgan uyushmalarning samarali mintaqalararo yo'nalishlarni shakllantirish hamda ta'minot silsilalarining barqarorligini ta'minlash qobiliyati ularning geosiyosiy maqomiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Bu ma'noda, xalqaro transport koridorlari faqatgina iqtisodiy o'sish mexanizmi bo'libgina qolmasdan, balki davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlikni mustahkamlash vositasiga aylanib bormoqda. Ular sanoat va texnologik rivojlanishning yangi markazlarini shakllantirishga hissa qo'shgan holda turli xil iqtisodiy makonlar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'inlar sifatida yuzaga chiqmoqda.

Transport koridorlarini rivojlantirish masalalari Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan strategik transport markazi sifatida muhim rol o'ynaydigan Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ayniqsa dolzarbdur. Mintaqa muhim tranzit salohiyatiga ega bo'lib, agar ulardan samarali foydalanilsa, bu iqtisodiy o'sishga, savdo aloqalarini kengaytirishga va integratsiya jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi sharoitlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zlarining transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, meyoriy-huquqiy bazani uyg'unlashtirish va logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy yetish zaruriyatiga duch kelmoqdalar. Xalqaro transport tashabbuslari doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaviy hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri transport va tranzit sohasidir. Markaziy Osiyoda muhokama bosqichida turgan yoki amalga oshirilayotgan xalqaro transport koridorlari mintaq mamlakatlari taraqqiyotida muhim o'rin egallamoqda. Transport yo'nalishlarining aksariyati Markaziy Osiyo davlatlari hududidan o'tadi, bu esa ularni global logistika tizimida asosiy yo'nalishlarga aylantirmoqda[1]. Aynan shu koridorlar tufayli mintaq mamlakatlari o'zlarining dengiz kommunikatsiyalaridan

geografik uzoqligini qoplashga hamda o'z mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirishga intilmoqda. Xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yangi iqtisodiy istiqbollarni ochib, tashqi savdoning o'sishiga, investitsiyalarni jalb qilishga va mintaqani global ta'minot silsilalariga birlashuviga yordam beradi. Samarali transport va logistika infratuzilmasining yaratilishi transport xarajatlarini kamaytirish, yuk tashish tezligini oshirish hamda mintaqaning tranzit borasidagi jozibadorligini kuchaytirish imkonini beradi. Har xil xalqaro yo'nalishlar o'rtasida transport oqimlari uchun raqobat kuchayib borayotgan bir paytda Markaziy Osiyo transport sohasining barqaror rivojlanishini va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishni ta'minlaydigan maqbul logistika modelini shakllantirishga intilmoqda.

Tahlil va natijalar. Xalqaro transport koridori[2] tushunchasi tadqiqotchilar, iqtisodchilar va xalqaro tashkilotlar vakillari o'rtasida munozara mavzusi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu atamaning yagona ta'rifi mavjud emas, chunki transport koridorlari logistika, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jihatlarni birlashtirgan ko'p funksiyali tizimlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Mumtoz ma'noda xalqaro transport koridori - bu logistika xablari orqali o'zaro birlashtirilgan, terminallar va nazorat punktlari bilan bog'langan avtomobil yo'llari, temir yo'llar, dengiz va aviatsiya yo'nalishlarini o'z ichiga olgan transport yo'nalishlari tizimidir. Bunday yondashuv transport logistikasini tartibga solish bilan shug'ullanadigan xalqaro institutlarda, shu jumladan Xalqaro dengiz tashkiloti, Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi va Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotida keng tarqalgan. Ularning talqiniga ko'ra, xalqaro transport koridori iqtisodiy markazlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar va odamlarning jismoniy harakatini ta'minlaydi, global ta'minot silsilalari samaradorligini oshirgan holda logistika xarajatlarini kamaytiradi.

Biroq, so'nggi o'n yilliklarda transport koridorlari nafaqat infratuzilmaning unsuri, balki geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobatning muhim omili sifatida ham ko'rib chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro transport koridorlari strategik ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy ta'sir vositasi va global logistika raqobatining omiliga aylanib bormoqda. Ushbu yondashuv, ayniqsa, Xitoyning "Bir makon, bir yo'l"[3], tashabbusi, "Shimol-Janub" loyihasi[4], shuningdek, Yevropa Ittifoqining Trans-Yevropa tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan "TEN-T" strategiyasida[5], yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy xalqaro transport koridorlari ularni an'anaviy logistika yo'nalishlaridan ajratib turadigan bir qator asosiy xususiyatlarga ega. Eng avvalo, ular transmilliy tusga ega bo'lib, turli iqtisodiy zonalarini bog'laydi va milliy transport tizimlarining global tarmoqqa qo'shilishiga yordam beradi. Bunday koridorlarning rivojlanishi bir nechta davlatlar o'rtasida kelishuvni, infratuzilma standartlarini muvofiqlashtirishni hamda tranzit transportini tartibga soluvchi huquqiy meyorlarni ixchamlashtirishni talab qiladi.

Ikkinchi muhim jihat - xalqaro transport koridorlarining multimodaligidir. Uchinchi xususiyat esa transport jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, xalqaro transport koridorlari mintaqaviy iqtisodiy birlashuv uchun rag'bat beradi. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyoda SHHT doirasida transport yo'laklarini kengaytirishga qaratilgan loyihalar, YEOII va mintaqa davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar

alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan xalqaro transport koridorlari nafaqat global logistika, balki xalqaro iqtisodiyot, siyosat va xavfsizlikka ham ta'sir ko'rsatadigan murakkab, ko'p bo'g'inli tizimlardir. Ularning rivojlanishi infratuzilmani rejalashtirish, huquqiy tartibga solish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va geosiyosiy omillarni hisobga olishni o'z ichiga olgan yalpi yondashuvni talab qiladi, bu esa ularni global xalqaro munosabatlar tizimining muhim unsuriga aylantiradi.

Transport koridorlarini o'rganishga nisbatan nazariy yondashuvlar xalqaro munosabatlarning bir necha asosiy tushunchalariga asoslanadi. Transport koridorlarining geosiyosiy tahlili ularning yirik davlatlar o'rtasidagi ta'sirni qayta taqsimlashdagi rolini aniqlashga imkon beradi, tobelik nazariyasi esa mamlakatlarning logistika zahiralari notekis kirishi natijasida yuzaga keladigan tarkibiy nomutanosibliklarga e'tibor qaratadi.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi transport koridorlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ularning ko'p mezonlilikiga qaratilgan. Infratuzilma mezonidan tashqari, ularning iqtisodiy, siyosiy va ekologik tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy jihat transport koridorlarining investitsiya oqimlari, logistika xarajatlari va mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganishni o'z ichiga oladi. Siyosiy mezon ularning ittifoq hamda sheriklik munosabatlarini shakllantirishdagi, shuningdek ziddiyatli vaziyatlardagi rolini tahlil qilish bilan bog'liqdir. Ekologiya borasidagi tarkibiy qism barqaror rivojlanish, yonilg'i izlash va logistikaga yashil texnologiyalarni joriy etish masalalarini hal qiladi.

Xalqaro transport koridorlari xalqaro munosabatlar sohasidagi turli nazariy yo'nalishlar bilan ko'rib chiqilmoqda. Realizm nuqtai nazaridan global siyosat davlatlar o'rtasidagi kuch va ta'sir uchun raqobat bo'lib, iqtisodiy hamda infratuzilma loyihalari, shu jumladan transport koridorlari ishtirokchilarning jahon sahnasidagi mavqelarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi[6].

Realistik maktabning markaziy tushunchasi kuchdir va xalqaro transport koridorlari davlat hokimiyatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Global raqobat sharoitida strategik yo'nalishlar ustidan nazorat davlatlarga qo'shimcha ta'sir vositalarini taqdim etadi, bu ularga zahiralardan foydalanishni tartibga solish, mahsulotlar va sarmoya oqimini boshqarish, boshqa mamlakatlar hamda mintaqalarga hamkorlikning qulay shartlarini tiqishtirgan holda joriy etish imkonini beradi. Bu transport koridorlarini nafaqat logistika va savdoni rivojlantirish vositasi, balki yirik davlatlar hamda mintaqaviy hamkorlar ishtirokidagi xalqaro raqobat omiliga aylantiradi.

Bizning Markaziy Osiyoda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishning geosiyosiy jihatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz doirasida realistlik yondashuv tahlilning asosiy nazariy doiralardan biridir. Markaziy Osiyoda transport koridorlarining rivojlanishiga faqat logistika va iqtisodiyot nuqtai nazari orqali qarash mumkin emas, chunki ularning ishlashi va nazorati mintaqadagi kuchlar muvozanati hamda dunyoning yetakchi davlatlari o'rtasidagi global raqobat bilan bevosita bog'liqdir.

Realistik maktab nuqtai nazaridan Markaziy Osiyoda transport yo'nalishlarini nazorat qilish ta'sir doiralari uchun kurashning ajralmas qismidir. Yirik davlatlar koridorlarni iqtisodiy va siyosiy bosim vositasi deb bilishadi. Masalan, Xitoyning BMBY (OPOP) tashabbusi Xitoyning Yevrosiyodagi iqtisodiy ta'sirini

kuchaytirishga qaratilgan, Yevropa Ittifoqi esa Kavkaz va Kaspiy dengizi orqali muqobil yo'llarni ishlab chiqib, Rossiya infratuzilmasiga qaramlikni kamaytirmoqda.

Realistik yondashuv doirasida tadqiqotchilar xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi ularning barqaror ishlashiga tahdid soladigan turli nodavlat ishtirokchilarning ta'siriga duch kelishini ta'kidlamogda[7]. Neoliberal yondashuv doirasida xalqaro aloqa va xalqaro transport koridorlarining ishlashi global iqtisodiy rivojlanishning asosiy unsurlari sifatida qaraladi. Ushbu maktab xalqaro iqtisodiy munosabatlarga alohida e'tibor berib, jahon bozorlarining barqaror o'sishi va integratsiyasini ta'minlashda davlatlararo o'zaro bog'liqlik hamda hamkorlikning roliga urg'u beradi.

Keoxeyn va Nay murakkab o'zaro bog'liqlikning uchta asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatgan: 1) Aloqa kanallarining ko'pligi. Davlatlar o'rtasida nafaqat rasmiy diplomatik aloqalar, balki transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat ishtirokchilar orqali ko'plab norasmiy aloqalar ham mavjud. 2) Masalalar orasida iyerarxiyaning yetishmasligi. Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy masalalar xalqaro kun tartibidagi harbiy masalalar kabi muhim bo'lishi mumkin, bu esa xalqaro siyosatdagi ustuvorliklarni qayta taqsimlashga olib keladi. 3) harbiy kuchning cheklangan roli[8]. Yuqori o'zaro bog'liqlik sharoitida harbiy kuch ishlatish, ayniqsa, o'zaro bog'liq davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda unchalik samarali bo'lmagan siyosat vositasiga aylanadi. Ushbu qoidalar xalqaro transport koridorlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

Konstruktivistik yondashuv xalqaro transport koridorlarini rivojlantirishda ishtirok etayotgan davlatlar o'zlarining iqtisodiy imkoniyatlari va strategik ustuvorliklari to'g'risida aniq belgilangan g'oyalarga asoslanib, o'zlarining milliy iqtisodiyotlarini mustahkamlash va transport infratuzilmasini

modernizatsiya qilish istagini boshqarishini nazarda tutadi[9]. Xalqaro transport koridorlariga realizm, neoliberalizm va konstruktivizmning konseptual yondashuv-larini tahlil qilish xalqaro munosabatlarda transport infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq afzalliklar va muammolarni aniqlab, ularning ta'sirini turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Shu o'rinda realizm nuqtai nazaridan xalqaro transport koridorlari birinchi navbatda geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida qaraladi va ularning rivojlanishi strategik yo'nalishlar, zahiralalar va savdo oqimlarini nazorat qilish uchun davlatlarning raqobati bilan belgilanadi. Ushbu paradigmadagi mamlakatlar xalqaro mavqeiini mustahkamlash, tovarlar oqimini nazorat qilish va o'zlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun transport yo'laklaridan foydalanishga intilishadi. Realistlarning ta'kidlashlariga ko'ra, transport infratuzilmasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik omili, balki geosiyosiy bosim vositasi hamdir, chunki asosiy yo'nalishlar ustidan nazorat davlatlarga raqobatchilar va sheriklarga ta'sir o'tkazishga imkon beradi. Ushbu yondashuvning salbiy oqibatlariga savdo yo'llarini harbiylashtirish, transport markazlari uchun mojarolarning kuchayishi va siyosiy inqirozlarda transport blokadalarning kuchayishi kiradi.

Realistik, neoliberal va konstruktivistik yondashuvlarni taqqoslash xalqaro transport koridorlari nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy vosita, balki geosiyosiy, iqtisodiy, tartibga soluvchi va ijtimoiy-madaniy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab hodisani ifodalashini ko'rsatmoqda. Ularning rivojlanishi va faoliyati nafaqat davlatlarning strategik manfaatlariga, balki global tendensiyalar, texnologik o'zgarishlar, institusional mexanizmlar va xalqaro siyosatning asosiy ishtirokchilari haqidagi tasavvurlarga ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Зоҳидов А. Альтернативные транспортные коридоры в Центральной Азии: факторы, взаимозависимость и проблемы интеграции. Центральная Азия и Кавказ. 2014;17(1):167-177.
2. Examining the Feasibility of an East-West Economic Corridor for South and Central Asia. Feb 20, 2025. RAND. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RRA3076-1.html.
3. What is China's Belt and Road Initiative (BRI)? 19 December 2022. <https://www.chathamhouse.org/2021/09/what-chinas-belt-and-road-initiative-bri>
4. Ниведита Дас Кунд. Международный транспортный коридор «Север – Юг»: улучшение региональной сопряжённости Индии. 24.01.2024. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/koridor-sever-yug-india/>
5. Trans-European Transport Network (TEN-T). https://transport.ec.europa.eu/transport-themes/infrastructure-and-investment/trans-european-transport-network-ten-t_en
6. Чигарев В. Н., 2020. Категория «международный транспортный коридор» в современной мировой политике: теоретические и методологические аспекты. – Геоэкономика энергетики. № 4 (12). С. 142–152.
7. Kissinger H. An End of Hubris // The Economist, 19 November 2008. URL: <http://www.economist.com/node/12574180>.
8. Keohane R.O., Nye J.S. 1977. Power and Interdependence: World Politics in Transition. Boston: Little, Brown and Company.
9. Саидов С.Ш. Феномен «мягкой силы» и некоторые его аспекты во внешней политике Узбекистана. // Alma Mater (Вестник высшей школы). –Россия, 2022. – №04. –С. 67.